

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**NASSER SAHIM A T ALJASSIM**

**QATAR MUSIQA MADANIYATI VA UNING O‘ZBEKISTON BILAN  
ALOQALARI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK**

**17.00.02 – Musiqa san’ati**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on art studies**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по искусствоведению**

**Nasser Saxim AT Al-Jassim**

Qatar musiqa madaniyati va uning O'zbekiston bilan aloqalari:  
tarix va zamonaviylik..... 3

**Nasser Saxim AT Al-Jassim**

Music culture of Qatar and its links with Uzbekistan:  
historical backgrounds and nowadays..... 25

**Нассер Сахим АТ Ал-Жассим**

Музыкальная культура Катара и ее связи с Узбекистаном:  
история и современность..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**NASSER SAHIM AT ALJASSIM**

**QATAR MUSIQA MADANIYATI VA UNING O‘ZBEKISTON BILAN  
ALOQALARI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK**

**17.00.02 – Musiqa san’ati**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/San201 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.konservatory.uz](http://www.konservatory.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamadjanova Elnora Ulmasovna**  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Rustambek Samigovich**  
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Devid Gabriel Hebert**  
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2021.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "\_\_\_\_\_" kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871)239-46-53; faks: (99871)244-53-20; e-mail: [info@konservatoriya.uz](mailto:info@konservatoriya.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871)239-46-53.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2022 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**T.B.G'ofurbekov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**B.Sh.Ashurov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**S.B.Qosimxo'jayeva**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon musiqa merosida arab musiqasi o‘z madaniy taraqqiyoti bosqichida ildizlari bilan uzoq o‘tmishga borib taqalishi hamda ularga bevosita aloqador bo‘lgan yozma manbalar orqali hayotiy barcha jabhalarda musiqaning asrlar davomida shakllangan barqaror toifa va janrlarini yaqindan bilish, ularning amaliy masalalarini ochib berish alohida o‘rin egallaydi. Ana shu qadriyatlarining o‘q ildizlarini tashkil etuvchi mumtoz musiqa va uning ilmiy-amaliy asoslari benazir qadriyatlar sifatida jahon ahli tomonidan e‘tirof etilmoqda. Mumtoz musiqa madaniyati navlarining ustuvor masalalarini, manbalardagi mazmunini aslidagidek yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo musiqashunoslari bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqiy asarlarni, qolaversa musiqiy cholg‘ular, musiqiy janrlarning yangicha ilmiy-nazariy tamoyillari asosida tahlil etish va zamonaviy xulosalar chiqarish, ko‘p asrlik madaniy almashinuvlarni rivojlantirish, do‘stlikni mustahkamlash va xalqlarni o‘zaro yaqinlashtirish uchun amalga oshirilayotgan say’-harakatlarni mustahkamlash, muloqot ko‘prigini qurishda musiqa san’atining muhimligi, madaniy merosning nazariy masalalarini musiqashunoslar tomonidan hamkorlikda o‘rganish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilishini taqozo etmoqda.

Yurtimizda mumtoz san’atning ko‘p asrlik an’analari va mahalliy uslublari mamlakat hukumatining alohida e‘tibori sabab qayta tiklandi, shu bois maqom san’atining boshqa turlari bilan umumiy jihatlarini o‘rganish o‘ta muhimligi, Qatar va O‘zbekiston musiqa madaniyatining mushtarak jihatlarini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Shubhasiz, maqom san’atini teran anglamay turib, haqiqiy san’atni tushunish qiyin. Biz maqom ohanglari, uning ruhi va falsafasi zamondoshlarimiz, avvalo yosh avlod ongida va qalbida mustahkam o‘rin egallashi uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz kerak”<sup>1</sup>. Shunday qilib Qatar xalqi o‘xshash janrlari bilan aloqalarini ilmiy tadqiq etish, ularning mazmunini avlodlarga aslidagidek yetkazish masalasining dolzarbligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3178-son “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 26 avgustdagi PQ-3920-son “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohalarini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari xususida”gi Qarorlarida, shuningdek, mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev. Maqom san’ati – bebaho ma’naviy xazina // Maqom san’ati Xalqaro forumining ochilish marosimidagi chiqish so‘zi. Xalq so‘zi, 7.09.2018. №185 (7113) – B.1.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Qatar musiqa madaniyati xususida mahobatli tadqiqotlar yaratilmagan. Shunga ko’ra, ushbu dissertatsiya mavzusi asosiy tarixiy davrlar va ularning mazkur mamlakatda rivojlanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Musiqa san’atini tashkil etuvchi janr, toifa, musiqiy cholg’ular kabi asosiy qatlamlarni o’rganish va tasnif etish ushbu bo’shliqni to’ldirish imkonini beradi.

Boz ustiga, o’zbek musiqasi va arab, xususan, Qatar musiqasi o’rtasida qiyosiy tadqiqot avval o’tkazilmagan. Shuni ta’kidlash mumkinki, ba’zi ishlar dissertatsiya mavzusiga yaqin. Jumladan, Genri Jorj Farmer<sup>2</sup> o’zining “Arab musiqasi tarixi” nomli kitobida Markaziy Osiyo olimlarining arab musiqasi rivojiga qo’shgan hissasini aytib o’tadi.

M.Dickens<sup>3</sup> tadqiqotini ta’kidlash mumkin, unda arab va o’zbek musiqa san’ati o’rtasida o’z o’rniga ega bo’lgan xalqaro madaniy o’zaro ta’sirlar xususida so’z boradi, asarda ta’kidlanishicha, Yaqin Sharq musiqasining ko’plab jabhalari Markaziy Osiyo musiqasida o’z aksini topgandir. Shuningdek, ta’kidlanadiki, musiqiy cholg’ularning asosiy toifalari (nomlari bilan birga) Islom madaniy olamining boshqa mintaqalarida ham uchratish mumkin bo’lgan turlariga ma’lum darajada o’xshashdir. Muallif shuningdek, arab musiqasiga xos bo’lgan konkret xususiyatlar va ularning g’arbiy musiqadan farqini ta’kidlaganki, ular orasida “og’riqli, o’ychan va melanxolik muhit hissini” beruvchi mikrotonlarning roli mavjud.

R.Abdullayevning “O’zbekiston va Markaziy Osiyo madaniyati kontekstida marosim va musiqa” kitobi – Markaziy Osiyo an’anaviy musiqasi, xalq og’zaki ijodi va marosim musiqasini o’rganishga bag’ishlangan. Mazkur kitobdagi ma’lumotlar shu qadar muhimki, muallif turli musiqiy janrlar, qolaversa O’rta Osiyo xalqlari musiqasini qiyosiy tadqiq qilgan. Marosim musiqasi tarixiy kontekstda, shakllanish qanday kechganligi va bugungi kunda qanday saqlanib qolganligi o’rganiladi, bu tadqiqot juda qiziq, chunki ular musiqa jo’rligisiz yakkaxon ijro etilgan. Xalqaro bayram bo’lgan marosim faqat musiqa va raqslar bilan nishonlanadigan bayram emas, balki bu xalqning avlodan-avlodga silliq o’tib kelayotgan ulkan an’anaviy tarixiy va madaniy hodisasidir<sup>4</sup>.

E.Mamadjanova<sup>5</sup> ham Arab islom xalifaligining Sharq sivilizatsiyasini integratsiyalanishidagi roli xususida eslatadi, zero Xalifalik o’zining diniy tizimini yetti yuz yil (milodning 7-13 asrlari) davomida ko’plab mamlakatlarda joriy etdi va bu jamiyat hayotining ko’plab jabhalarida, madaniy xususiyatlari va san’at turlarida namoyon bo’ldi.

---

<sup>2</sup> Farmer G., History of Arabic Music, translation, Hussein Nassar, The National Center for Translation, Cairo, 2010

<sup>3</sup> Dickens M., Uzbek Music, paper, 1989, [https://www.academia.edu/436105/Uzbek\\_Music](https://www.academia.edu/436105/Uzbek_Music).

<sup>4</sup> Абдуллаев Р.С. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. Ташкент, 2006.

<sup>5</sup> Mamadjanova E. Traditional music of the Uzbeks. Tashkent, Musiqa, 2015.

Tadqiq etilayotgan mavzuning yoritilishida xorijiy va mahalliy olimlar (tarixchilar, filologlar, musiqashunoslar)ning ishlari ahamiyatli ko'mak berdiki, ularda musiqa nazariyasi, estetikasi va maqom ijrochilik san'atini o'rganishda qo'llaniluvchi uslubiy va nazariy ishlanmalar taqdim etiladi. Bu yerda I.Yeolyan, N.Shaxnazarova, T.Sergeyeva, V.Uspenskiy, T.Vizgo, F.Karomatov, T.G'ofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, N.Yanov-Yanovskaya, R.Yunusov, S.Begmatov, E.Mamadjanova, I.Ganiyeva, Ch.Ergasheva, Sh.Ayxodjayeva ishlarini ularning Sharq musiqasi, o'zbek musiqasi xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarini hisobga olgan holda ta'kidlash lozim.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining "O'zbek musiqasi tarixini o'rganish va yoshlarni milliy musiqa ruhida tarbiyalash" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qatar musiqa madaniyati xususiyatlari va uning O'zbekiston bilan aloqalarining tarix, nazariya va musiqiy janrlari kesimida o'ziga xos xususiyatlari orqali ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Qatar musiqa madaniyatini arab madaniyatining bir qismi sifatida ko'rib chiqish, arab madaniyatining asosiy davrlariga tarixiy kesimda tavsif berish;

Qatar musiqa san'ati stilistikasi, xususiyatlari va janrlarini tasnif etish;

Qatar va O'zbekiston musiqasining badiiy xususiyatlarini ijtimoiy kesimda qiyosiy tadqiq etish va belgilash;

Qatar va o'zbek musiqa san'atining farqli uslubiy tavsiflarini melodik va metroritmik nuqtai nazardan aniqlash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qatar musiqa madaniyati, asosiy ko'rinishlari, janrlari va musiqa san'ati turlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Qatar va o'zbek xalqlarida nazariy va amaliy jihatdan muntazam rivojlanib, takomillashib borayotgan qadim zamonlardan hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy hayotning an'anaviy janrlari, odatlari, hodisalari va musiqa san'atining turli tomonlari bilan taqqoslanishi. hozirgi kungacha diniy, estetik va badiiy aloqalar.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotning belgilangan maqsadlariga erishish uchun tizimli-tahliliy, qiyosiy-tipologik, ilmiy usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qatar musiqa madaniyatining Fajri, Sut, Samry, Happan kabi musiqiy janrlari ritmik usuliga ko'ra Ajam Rost, Nahovand Segoh, Nahovand Iroq maqomlari o'zbek Shashmaqomidagi Buzruk, Navo, Dugoh kabi maqomlar bilan bog'liqligi aniqlangan;

Qatar xalq musiqasidagi to'y-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, dengiz qo'shiqlari va maqom janriga xos Jaloua, Arda kabilar faqatgina ushbu hududga xos lokal xususiyatlari ekanligi, ular o'zbek musiqa merosi namunalarida uchramasligi ochib berilgan;

Qatar musiqa madaniyatini O'zbekiston bilan madaniy aloqalari o'ziga xos musiqiy cholg'ulardan tabl, tus, mervas, rubaba, tanbura cholg'ularining pardabandi va shakliga ko'ra nay, surnay, ud, qonun, doira kabilarning o'xshashligi dalillangan;

Qatar xalq musiqasi ko'proq zarbli musiqa cholg'ulariga tayanishi, aksariyat ommalashgan lirik shakllar ularda qo'llanilgan ritmik andozalar Savt san'atida Shami Mizan, Arab Mizani, Xayali Mizan nomi bilan atalishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qatar musiqa madaniyatining Fajri, Sut, Samry, Happan kabi musiqiy janrlari ochib berilgan;

Qatar musiqasi xususiyatlari xalq musiqasidagi to'y-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, dengiz qo'shiqlari va maqom janrining o'ziga xos lokal xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi;

Qatar musiqa madaniyatini O'zbekiston bilan madaniy aloqalari o'ziga xos musiqiy cholg'ulardan tabl, tus, mervas, rubaba, tanbura cholg'ularining nay, surnay, ud, qonun, doira kabilarning o'xshashligi tadbiq etiladi;

Qatar xalq musiqasi ko'proq zarbli musiqa cholg'ulariga tayanishi, aksariyat ommalashgan lirik shakllar ularda qo'llanilgan ritmik andozalar Savt san'atida Shami Mizan, Arab Mizani, Xayali Mizan nomi bilan atalishi amaliyotda keng joriy etiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi Qatar musiqa madaniyatining avval ma'lum bo'lmagan shakllari va turlari, ayrim musiqiy folklor namunalari tahlil etildi. Bundan tashqari, muallif uchun har ikki mamlakatning madaniyat va san'at arboblari bilan olib borilgan suhbatlardan olingan xulosalarning dalilligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqodning ilmiy ahamiyati shundaki, uning natijalari ayni paytda musiqashunoslikda mavjud bo'lgan nazariy xulosa va tasavvurlarni kengaytirishga turtki bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lib, uning ayrim bo'limlari umumta'lim muassasalarining musiqa va madaniyat fakultetlarida tarbiyaviy ishlarda foydalanilishi, ba'zi musiqiy namunalar ham kompozitorlar, ham ijrochilar ijodida birdek qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qatar musiqa madaniyatining Fajri, Sut, Samry, Happan kabi musiqiy janrlari ritmik usuliga ko'ra Ajam Rost, Naxovand Segoh, Naxovand Iroq maqomlari o'zbek Shashmaqomidagi Buzruk, Navo, Dugoh kabi maqomlar bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar Qatar televideniyesining SIYAK ko'rsatuvi ssenariysida foydalanilgan (Qatar televideniyesining 2022 yil 25 avgustdagi 14346-2022-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar shu asosda musiqiy janrlar bilan tanishish imkoniyatini bergan;

Qatar xalq musiqasidagi to'y-marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, dengiz qo'shiqlari va maqom janriga xos Jaloua, Arda kabilar faqatgina ushbu hududga

xos lokal xususiyatlari ekanligi, ular o‘zbek musiqa merosi namunalarida uchramasligi Habaieb radiokanali ssenariysida foydalanilgan (Habaieb FM radiosining 2022 yil 18 avgustdagi ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar Arda, Jaloua kabi maqom janrlari, to‘y-marosim qo‘shiqlari va mehnat qo‘shiqlarining lokal xususiyatlari bo‘yicha yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lgan;

Qatar musiqa madaniyatini O‘zbekiston bilan madaniy aloqalari o‘ziga xos musiqiy cholg‘ulardan tabl, tus, mervas, rubaba, tanbura cholg‘ularining pardabandi va shakliga ko‘ra nay, surnay, ud, qonun, doira kabilarning o‘xshashligi haqida Euronews televideniyesi ssenariysida foydalanilgan (Euronews Doha QFC Branchning 2022 yil 7 sentyabrdagi ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar musiqiy cholg‘ularning o‘xshashligi haqida yangi ma’lumotlarga ega bo‘lgan;

Qatar xalq musiqasi ko‘proq zarbli musiqa cholg‘ulariga tayanishi, aksariyat ommalashgan lirik shakllar ularda qo‘llanilgan ritmik andozalar Savt san’atida Shami Mizan, Arab Mizani, Xayali Mizan nomi bilan atalishi O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatida foydalanilgan va bayonlashgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2022 yil 12 sentyabrdagi 01-04/73-162-son ma’lumotnomasi). Natijada Qatar xalq musiqasida ko‘proq zarbli musiqa cholg‘ularining o‘rni xususida o‘sib kelayotgan yosh iste’dodlar tasavvurlarini kengaytirishga asos bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning mavzu bo‘yicha 9 ta maqola chop etilgan bo‘lib, ulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, xususan, 3 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida Qatar musiqa madaniyatini, uning asosiy turlari, janrlari, shakllari va uslubiy xususiyatlarini o‘rganish muhimligi belgilab berildi. Bundan tashqari, tarixiy ildizlarga ega, bugungi kunda ham davom etib kelayotgan Qatar va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy integratsiya masalalariga katta e‘tibor qaratiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlilida umuman Sharq musiqasi, shuningdek, arab va o‘zbek musiqasining asosiy jabhalarini o‘rganish belgilab olindi. Dissertatsiyaning mazkur bo‘limida maqsad va vazifalar belgilanib, muallif tomonidan tadqiqot materiallari va metodologik pozitsiya taqdim etildi.

Ushbu bo‘limda asosiy tushunchalar (“arabcha musiqa”, “qatarcha musiqa”, “o‘zbekcha musiqa”) va ularning tarixning turli davrlaridagi semantik har xilligi

muhokama qilinadi. Qatar va O‘zbekiston madaniyatidagi “an’ana musiqa” tushunchasiga alohida e’tibor qaratildi.

**Birinchi bob** “Qatar musiqa madaniyati arab madaniyatining bir qismi sifatida” deya nomlanib, qatar musiqasining shakllanish jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan: bu arab milliy an’analarining tarmog‘i sifatida uning namunalari, shakllari, janrlari, musiqiy cholg‘uchiligidir.

Birinchi paragrafda arab musiqasi tarixi turli davrlarga bo‘linib, quyidagicha o‘rganildi:

- Islomga qadar davr.
- Islom gullab-yashnagan davrda arab musiqasi (milodning 622-632 yy.).
- Odil xalifalar davrida arab musiqasi (milodning 632-661 yy.).
- Omeyyadlar sulolasi zamonida arab musiqasi (milodning 661-750 yy.).
- Abbosiylar davlatida arab musiqasi (milodning 750-1258 yy.).
- Andalussiya davridagi arab musiqasi, undan keyin noaniq davr zulmat deb hisoblangan.

- Arab quyosh nuri badiiy bosqichi (XIII – XVIII).

Ushbu davrlarning har birida asosiy e’tibor musiqa san’ati rivojiga ta’sir qiluvchi madaniy va ijtimoiy voqealarni o‘rganishga, shuningdek, turli davrlarda paydo bo‘lgan kuylashning yorqin va ahamiyatli turlarini o‘rganishga qaratiladi. Muayyan davrda mavjud bo‘lgan musiqiy cholg‘ularni ko‘rib chiqishga, shuningdek, atoqli shaxslarni yod etishga alohida o‘rin ajratiladiki, ular musiqa san’ati rivojida va tarqalishida, keyingi avlodga ta’sir etishda muhim rol o‘ynadi. Arab madaniyati va musiqa san’ati, mashhur janrlar xususiyatlarini shakllantirishga ta’sir qilgan birmuncha yorqin voqealar aynan shu davrlar bilan bog‘liqlik, bu tadqiqot doirasi tarix bo‘limining XIII asri bilan chegaralanishini izohlaydi. Bu esa tarix bo‘limida tadqiqot qo‘lamining XIII asrga cheklanishini tushuntiradi, undan keyin yangi yuksalish davri XVIII asrgacha arab quyosh nuri bosqichiga aylanadi.

Shu tariqa, mazkur ishda islomgacha davrda paydo bo‘lgan va Al-Xada, Al-Senad, Al-Nasab, Al-Xazaj, Tahlil va Nashid sifatida mashhur bo‘lgan qo‘shiq, shuningdek, islomgacha bo‘lgan davr badiiy hayotida muhim rol o‘ynagan Kian (ayol xonandalarni shunday nomlashgan) faoliyati ko‘rib chiqiladi. Aynan shu davrda ayollar roli ahamiyatli bo‘lgan: ular raqsga tushar, qo‘shiq kuylar, musiqiy cholg‘ularda chalar, va tadbir hamda bayramlarda ishtirok etardilar; bundan tashqari ular motam marosimlarida yig‘i ijrochilari sifatida qatnashar edilar<sup>6</sup>.

Musiqiy cholg‘ular ayniqsa ahamiyatli edi, masalan ud nihoyatda mashhur cholg‘u bo‘lib, u jank, yassi qorinli kvadrat gitara kabi turli nomlar ostida keng tarqalgan. Ulardan tashqari qamish Mezzmar, zarbli cholg‘ulardan Ta’bl, Tor va Kadib qo‘llanilgan. Arablar shuningdek, tarelka va qo‘ng‘iroqlarni ma’qul ko‘rib, harbiy yurishlarda kastanetaga o‘xshash cholg‘ulardan foydalanganlar<sup>7</sup>.

Dissertatsiyada qacha Odil xalifalar davridagi professional musiqachiga tavsif beriladi. Ma’lumki, Xijozdagi birinchi professional musiqachi Tvays al-

---

<sup>6</sup> Alakhtiar N., Milestones of Arabic Music, The Modern Library, Beirut 1953, p.10.

<sup>7</sup> Farmer H., ibd, p.26.

Muxannatx edi. Xalifa Ali ibn Abu Tolib davriga kelsak, u adabiyot va san'atga g'amxo'rlik ko'rsatdi va kuylash san'atini o'rgatishga ijozat bergan edi, uning hukmronlik davrida Al-Mutken deb nomlangan xonishning yangi turi paydo bo'ldi<sup>8</sup>.

Omeyyadlar sulolasi davrida xalifalik Damashqqa ko'chirilgach, katta o'zgarishlar yuz berdi, shundan so'ng harbiy yurishlar sabab hududiy kengayishlar bo'lib, u deyarli butun Sharqni qamrab oldi va Yevropagacha yoyildiki, bu Saib Xasir olib kelgan Al-Mutken nomli kuylash turini tarqalishiga sabab bo'ldi. Saib bir nechta ichki bo'linmalar Azza Al-Mayla, Gamila va Ibn Sarij va Ma'badni o'z ichiga olgan maktabga asos soldi. Makkalik mashhur ijrochi Said bin Masjaja xonishida farqli kolorit paydo bo'ldi. Bundan tashqari, Al-Gurid san'atini paydo bo'lishiga hissa qo'shgan Ibn Maxrez mashhur edi<sup>9</sup>.

Bu davrda shuningdek, musiqa nazariyasiga oid ilk ishlar paydo bo'ladi, ular orasida Ibn Sarijning shogirdi Yunus al-Katib qalamiga mansub "Kitab ul - Nag'am", "Kitab ul - Kayan" nomli tadqiqotlar musiqiy asarlar yaratishda asos bo'lib xizmat qildi<sup>10</sup>. Tadqiqotchi bu mavzuni tarixiy va badiiy jihatdan ikki xususiyatga ajratdi.

Mazkur ishda Abbosiylar hukmronligi davriga katta e'tibor berilgan. Musiqiy harakat ushbu davrda qayta tiklanishni boshdan kechirdi va kuylash ikki usulda ijro etiladi: birinchisi – bu Ibrohim al-Mavsiliy metodi bo'lib, u avvalgi davrlar an'analarini o'zida saqlagan, ikkinchisi esa Ibn Jomiy metodi bo'lib, u birinchisidan ijroda ba'zi erkinliklarga yo'l qo'yilishi bilan ajralib turgan. Mazkur davrda maqamlar va yangi ritmik andozalar soni oshib, musiqiy cholg'ularning yangi turlari paydo bo'ladi. Umuman bu davr arab tsivilizatsiyasi eng gullab-yashnagan davr bo'ldi. Bunga bir nechta dalillar guvohlik beradi: faqat ud cholg'usining o'zi bir nechta turlarga ega bo'ldi, musiqiy ilm-fanni o'rganishda ulkan iz qoldirgan o'nlab olim va faylasuflar paydo bo'ladi. Ular orasida faylasuf Ishoq bin Yoqub al-Kindiy va uning "Loxun haqida ma'lumot" (Kuylar) nomli kitobi bor. Mashhur olim Al-Forobiy (milodning 874-951 yy.) ikki asosiy qismdan iborat "Musiqqa haqida katta kitob" qomusiy asarining muallifidir. Safiuddin al-Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) Ibn Zayladan keyingi birinchi yirik musiqa nazariyotchisidir. Uning eng mashhur ishlaridan "Kitab ul-Advor" ("Doiralalar kitobi") va "Risalat ush-Sharafiya"ni e'tirof etish joiz. Ibn Sino (milodning 980-1037 yy.) esa o'zining "Ash-Shifa" qomusiy asarining bir bobini insonlarni davolashda musiqaning ta'siriga bag'ishlagan, darhaqiqat alloma musiqiy terapiya asoschisi edi<sup>11</sup>.

Ishoq al-Mavsiliy Abbosiylar davrining eng yorqin ijrochilaridan bo'lib, uni o'z zamonasining musiqiy dahosi deb ataganlar. Uning shogirdi va izdoshi Al-Hasan bin Ali bin Nafiy (taxallusi Ziryob) esa nafaqat vatanida, balki Andalusiyaga ko'chib o'tgandan so'ng ham o'z davrining buyuk xonandasi va

<sup>8</sup> Abdel Jalil K., Arab and African Music, Council for the Development of Cultural Creativity, Libya 2003. P.30

<sup>9</sup> Alakhtiar N., ibd, p.27

<sup>10</sup> Abdel Jalil K., ibd, p.31.

<sup>11</sup> Al-Wartani A., The Oud in the Arab-Islamic Civilization between Scientific Theory and Musical Practice, Popular Culture Magazine, Kingdom of Bahrain, No.27, Fall 2014, p.124.

sozandasi bo'lgan. Bu o'lkada Ziryob musiqa san'atidan ta'lim beruvchi ilk o'quv muassasasiga asos soldi, unga Madina shahridan arab musiqasini yoyish uchun bir guruh xonandalarni taklif etdi, shuningdek, uning davrida mashhur bo'lgan barcha musiqiy cholg'ularni taqdim etdi<sup>12</sup>.

Andalusiya davri musiqasiga kelsak, u uchta bosqichga bo'lingan edi. Birinchi bosqich birinchi hukmronlik davrida yoyilgan (milodning 796-822 yy.), bu vaqtda musiqa Arab Sharqining yuksak xonishidan kelib chiquvchi zaif aksadodek edi. Ikkinchi bosqich Abdulrahmon at-Taniy (milodning 822-852 yy.) hukmronligi davriga to'g'ri keladi, uning zamonida musiqa san'ati Arab Mashriqi maktabiga borib taqaluvchi musiqiy an'analar sabab qayta tiklandi. Uchinchi bosqich milodiy 1027 yilda Omeyyadlar hukmronligining qulashi bilan bog'liq, bu inqiroz mamlakatni Tayflar nomi bilan mashhur bo'lgan kichik amirliklarga bo'lib yubordi. Mazkur davr madaniyat va san'atning gullab-yashnashi bilan bog'liq<sup>13</sup>.

Bobning bo'limi o'sha davrda keng tarqalgan musiqiy cholg'ularni ko'rib chiqishga bag'ishlanadi: bular Al-Xayal, Krix, Ud, Ruta, Rabab, Al-Qanun, Al-Munis, Kitra, Al-Nadara, Zalami, Shakra, Al-Nura va Truba. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "muvashaxat" nomli lirik janr o'sha davrning eng muhim asarlaridan edi. Bu davrda musiqa va xonishning mashhur arboblari orasida buyuk musiqachi Ibn Bajja, shuningdek, Adbul Vahhob Al-Hasan bin Ja'far Al-Xojib, Abu Al-Hasan Ali bin Al-Xamaralar bor edi. Arab cholg'u va vokal ijrochiligining shakllanishi ular nomi bilan bog'liq<sup>14</sup>.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "Xonish va arab cholg'u shakllari" deya nomlanib, u lirik (she'riy) shakllar (Al-Mutken, Suta, Maval, Mvasha, Qasida, Taktuka va Monolog) va musiqiy shakllar (Samoi – Taxmila – Longa - Maktua)ni o'rganishga bag'ishlanadi.

Ushbu qismda turli davrlarda arab musiqasida shakllangan lirik shakllar ko'rib chiqiladiki, ularning birinchisi Al-Mutken xonish shakli bo'lib, u taxminan milodning VII asrida paydo bo'lgan. Ushbu shakllar tavsifi va ularning yaratilish usullari o'rganildi, shuningdek, ularning yaratilishi va rivojlanishiga turtki bo'luvchi obyektiv sharoitlar ham o'rganilgan edi. Ishning bu qismida asosiy e'tibor arab musiqasining qoida va nazariyasi barqarorligini o'rnatgan eng muhim shakllardan biri Soutga qaratildi. Bundan tashqari, Muvasha va Qasida janrlari katta ahamiyatga ega bo'ldi, ular arab janrlarining hozirgi kunda mashhur bo'lgan o'sha xususiyatlariga olib keluvchi arab kompozitsiyasi shakllari va uning rivojini sayqallashga yordam berdi.

Ikkinchi paragrafda arab cholg'u musiqa shakllari o'rganildi: Samoi – Taxmila – Longa – Maktua shular jumlasidandir. Ushbu shakllar cholg'ular guruhi tomonidan ijro etiluvchi musiqiy asarni namoyon etadi va bunda bir cholg'u improvizatsiya (badiha) ijrosi uchun, ya'ni cholg'ular o'rtasidagi o'zaro dialog uchun noyob cholg'udir. Mazkur shakllar o'rtasidagi farq qoidalarda, ularga

---

<sup>12</sup> Al-Hafni M., Isaac Al-Mawsili, the musician Al-Nadim, The Egyptian General Organization for Authoring, News and Publishing, Cairo, p.236.

<sup>13</sup> Smash S., Andalusian Music in Talisman, Master's thesis submitted to Boubacar Belkaid Talisman University 2009, pp.47-48.

<sup>14</sup> Al-Qadi M., Moroccan Andalusian Music as a Model for Interaction and Civilized Mixing, Popular Culture Magazine, Kingdom of Bahrain, Issue Seventeen, Spring 2012, p.136.

harakat tartibi<sup>15</sup>, lad va metroritm toifasi nuqtai nazaridan rioya qilinishi kerak. Bu musiqa xonishga jo‘r bo‘luvchi, arab taxti nomli kichik musiqiy guruh tomonidan ijro etiladi. Taxt – forscha so‘z bo‘lib, “platforma” yoki “sandiqlar” degan ma‘noni bildiradi, uning birinchi kompozitsiyasi Abbosiylar davriga borib taqaladi. Taxt sozandalarining soni o‘rtadagi xonandadan tashqari, to‘rttadan oshmaydi. Odatda, taxtda qo‘llaniluvchi cholg‘ular bu Ud, Qonun, Skripka, Nay va zarblilardir<sup>16</sup>.

Birinchi bobning uchinchi qismi arab Maqamati xususiyatlari, uning tuzilishi va u bilan bog‘liq qoidalar, arab Maqamati xususiyatlarini tushuntiruvchi sharhlar haqida. Shunday qilib, arablar ikkita ketma-ket keluvchi ton orasidagi masofani namoyon etadigan to‘liq tovushni, ular yuqorilovchi yoki pastlovchi bo‘lishidan qat‘iy nazar, tonal interval deb ataydilar, Musiqiy intervallar toifalari esa quyidagicha tasniflangan: katta musiqiy interval, u to‘rtta choraktalikka teng (to‘liq qadam) va kichik musiqiy interval, u ikki choraktalikka teng (yarim qadam.) O‘rta musiqiy interval uchta choraktalik qadamga teng, haddan ziyod akustik interval: bir yarim qadam (qadamning olti choraktaligi)ga teng<sup>17</sup>.

“Arab maqomini qanday tuzish kerak” nomli bo‘limda jinslar o‘rganildi, ular to‘rt tovush bilan ajratilgan vergullarni namoyon etadi, G‘arbda ularni tetraxord yoki mukammal to‘rtinchi deb ataydilar, bu oralig‘ida uchta interval bor, ikkita yarimtalik to‘liq intervalli to‘rt qadam degan ma‘noni anglatadi. Arablar jinslar qoidasi va nazariyasini yunonlar va forslardan o‘zlashtirganlar, va til, did hamda mintaqadagi farqlarga qaramay, arablar o‘z xususiyatlarini saqlab qolganlar, jinslar – bu maqomning birinchi (quyi) birligi, novdasi esa guruh deyiladi. Ayni paytda jins to‘rt toifaga bo‘linadi:

Birinchi – Al-Jins Al-Tamm: u to‘rt qadam va uch intervaldan iborat, ya‘ni (qadamning o‘n choraktaligi), xuddi Rost Jinsi kabi. Ikkinchi – Al-Jins Al-Naqis: to‘rt qadam va uch intervaldan iborat, ya‘ni (qadamning sakkiz choraktaligi), xuddi Sabo Jinsidek, yoki to‘qqiz choraktalik, xuddi Xuzam Jinsi kabi. Uchinchi – Al-Jins Az-Zaid: u to‘rt qadam va uch intervaldan iborat, ya‘ni (qadamning o‘n bir choraktaligi), xuddi Sika Jinsi kabi. To‘rtinchi – Al-Nisba: u uch qadam va ikki intervaldan iborat, ya‘ni (qadamning yetti choraktaligi), xuddi Ramal Jinsidek. Beshinchi – Al-Aked: u besh qadam va to‘rt intervaldan iborat, umumiy hisobda o‘n to‘rt qadam, xuddi Aked Nava Ater kabi.

Mazkur qismda arab maqomini shakllantirishda rioya qilinadigan qoidalar, maqom tuzilishiga ikki jins kombinatsiyasining qo‘shilishi ko‘rib chiqildi. Uch toifa guruhlar mavjud: alohida guruh, unda jinslar maqomning beshinchi qadamidan boshlanadi, muttasil guruh, unda jinslar maqomning to‘rtinchi qadamidan boshlanadi, yopuvchi guruh, unda jinslar maqomning uchinchi qadamidan boshlanadi<sup>18</sup>.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “Qatar musiqa madaniyati va uning asosiy turlari”** deya nomlanib, uning birinchi qismi Qatar xalq musiqasiga, ikkinchisi -

<sup>15</sup> Abdel Azim S., The Arabic Music Agenda, National Book House, Cairo 1984, p. 87.

<sup>16</sup> Al-Hafni R., The Arabic Song in the Nineteenth Century, No. 56, The Syrian General Book Organization, 2010, p. 81.

<sup>17</sup> Aref A., Achieving Some Arabic Maqam Not Circulating in Egypt, Master Thesis, Faculty of Music Education, Helwan University, Cairo 1993, pp. 1, 18, 19.

<sup>18</sup> Shoura N., Guide to Arabic Music, Dar Al-Kutub Al-Arabiya, second edition, Cairo 1988, p. 229.

Qatar zamonaviy musiqasiga, uchinchi esa Qatarda joriy bo'lgan musiqiy cholg'ularga bag'ishlangan.

“Qatar xalq musiqasi” nomli birinchi paragraf Qatar xalq musiqasi madaniyati turlariga bag'ishlanib, tadqiqotchi uni jamiyat voqealari bilan bog'liq qo'shiqlarga, ishchi qo'shiqlari va samar qo'shiqlariga ajratadi.

Birinchi bo'limda dunyoviy voqealarni aks ettiruvchi qo'shiqlar ajratib ko'rsatiladi, u qo'shiqlarning keng qamrovini o'zida jamlagan, jumladan yangi yil kirishi bilan bog'liq qo'shiqlar ham kiritilganki, ular ayollar va bolalar ijrosidagi oddiy yakkaxon qo'shiqlardir. Bolalarning alla qo'shiqlari esa cholg'u jo'rligisiz kuylanuvchi aytim turidir. Sunnat marosimi vaqtida Ta'bl va Tar ritmlari jo'rligidagi raqsli qo'shiq ijro etiladi, bunda raqs xonishining turi ko'pincha Al-Ash'oriy san'atidan o'zlashtirilgan bo'ladi<sup>19</sup>.

Shunday qo'shiqlar borki, ular muayyan vaziyatlarda kuylanadi, masalan Karanka ox qo'shig'i Ramazon oyida kuylansa, Iyd qo'shig'ini bolalar, qizlar kuylaydigan Morada qo'shig'iga qo'shimcha sifatida Hayit bayramini nishonlaganda ijro etadilar. Ushbu qo'shiqlarning barchasi oddiyligi va samimiyligi bilan ajralib turadi va musiqiy jo'rliksiz ijro etiladi<sup>20</sup>.

Qatar jamiyatida nikoh tantanalari qo'shiqlarning keng qamrovini o'z ichiga oladi, xususan, katta bayram oldidan kelinning uyidagi marosimlar bilan bog'liq daza qo'shiqlari shu jumlagi kiradi. Jarayon kuyov uyidan boshlanib, shahar ko'chalari bo'ylab ayollar to'y qo'shiqlari va baraban zarblari jo'rligida o'tib, kelin uyigacha yangrab boradi. shuningdek, Al-Ash'oriy qo'shiqlari ko'rib chiqiladi, ularga ritmdagi vazmin tebranish va muraali vazmin sur'at xos bo'lib, bu ta'la va tar jo'rligida yangraydi. Diniy mavzudagi jalua qo'shiqlari ham erkin kuylash shaklida ijro etiladi<sup>21</sup>.

Tadqiqotning diqqat markazida to'y tantanalarida ijro etiluvchi birmuncha muhim janrlar bo'ldi, masalan arda qo'shiqlari, ular xalq qo'shig'ining bir turi bo'lib, qilich va miltiq jo'rligida, urush obrazi, otda yurish va jasoratni ifodalovchi ritmlar va she'riy ohanglar ostida, Tar va Ta'bla jo'rligida erkaklar tomonidan ijro etiladi. Zarbli cholg'ular metroritmga tovush qattiqligi va aniqligini baxsh etadi, bu mazkur to'y tantanasida ishtirok etish uchun o'ziga xos taklif sanaladi<sup>22</sup>.

Ikkinchi bo'limda qatarliklarning mehnat qo'shiqlari o'rganildi, ular orasida don maydalash jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar muhim o'rin tutadi. Bu chuqur qaror topgan mavsumiy madaniy voqelikdir. Mazkur marosimda bir-biriga qarama-qarshi turgan ayollar ishtirok etib, ularning har biri qo'lida menxaz (maydalagich sifatidagi katta yog'och asbob) ushlab turadi va unga navbatma-navbat uradi. Madakda (Katta yog'och idish, unga bug'doy solinadi) ayollardan biri maval kuylashni boshlaydi, ayollar guruhi esa barabanga urib, unga tabla va tarni jo'r qilib, javob qaytaradi va ritm tobora tezlashib boradi<sup>23</sup>.

<sup>19</sup> Al-Ghanim K., Annual Grain Milling Celebrations in Qatari Society, Department of Culture and Arts, Doha, 1997, p. 44.

<sup>20</sup> Hassan S., The songs of work on diving ships in the Gulf, Popular Traditions Magazine, No. 15, Doha Qatar, July 1989, p. 98.

<sup>21</sup> Al-Tamimi F., popular composer and heritage researcher, personal interview on 1/5/2022.

<sup>22</sup> Al-Tamimi F., ibid.

<sup>23</sup> Al-Qasimi K., and Ghanem N., The Quintet Music in the Gulf and Yemen, Popular Traditions Magazine, No. 5, Doha Qatar, January 1987, p. 39.

Ishda asosiy e'tibor, Fors ko'rfazi hududida bir necha yuz yillar davomida shakllangan va keng tarqalgan xonish turi, dengizcha kuylashga qaratilgan. Ushbu musiqaning eng muhim tavsifi lirik va metroritmik darajalardagi ko'pohanglik, ya'ni ushbu mintqa uchun xos bo'lgan o'ziga xos polifoniyani hosil qiluvchi ko'plab to'siluvchi musiqiy chiziqlardir. Bu xonish yana keng vokal diapazoni bilan ham farqlanadi, u yakkaxon ovozi (Al-Naxxam) unison bo'lib kuylayotgan dengizchilar ovozidan ajratib turadi<sup>24</sup>.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, dengizchi amalga oshirayotgan har bir harakat uchun unga jo'r bo'luvchi maxsus qo'shiq mavjud. Odatda barchasi yelkanni tushirish jarayoniga jo'r bo'luvchi qo'shiq bilan boshlanadi, va yelkanni ko'tarish yoki tushirish (xatfa san'ati) jarayoniga jo'r bo'luvchi qo'shiqlarga ulanib ketadi. Bundan tashqari, kichik yelkan yoki katta yelkan (Al-Jiba) tushirilishi bag'ishlangan qo'shiqlar, va dengizchilarning eshkak eshish jarayoniga bag'ishlangan qo'shiqlar (Yamal san'ati) mavjud. Ushbu qo'shiqlar maval va naxam xonishidan iborat bo'lib, dengizchilarga baland hayqiriqlar, ba'zan esa Ta'bla va Tussa bilan jo'r bo'ladi<sup>25</sup>.

Uchinchi bo'limda Samar qo'shiqlari ko'rib chiqiladi, ular keng qamrovli janrlardan iborat bo'lib, ulardan eng muhimi Al-Fijeriydir, u quruqlikda yukni ortishdan keyingi dengiz koloritini beruvchi san'at turlaridan biridir. Al-Fijeriy bir nechta shakllarga bo'linib, ularning har biri mavalga asoslanadi va ushbu janr ijrosi paytida qo'llaniladigan musiqiy ton hamda harakatlar bilan farqlanadi. Misol keltiriladi, unda dengiz bilan bog'liq izchil musiqiy obraz sifatida shaklni tashkil etuvchi quyidagi tarkibiy qismlarning alohida aranjirovkasi beriladi: bular Al-Fijeriy al-Baxriy, al-Fijeriy al-Adsaniy, al-Fijeriy al-Xaddadi, al-Fijeriy al-Muxavlafiy va al-Fijeriy al-Xasaviydir<sup>26</sup>.

Mazkur ishda asosiy e'tibor Fors ko'rfazidagi arablar ijrosi bilan mashhur bo'lgan qadimgi arab san'ati - Savt san'atiga qaratiladi. Ushbu muhim musiqiy san'at turining ijrochilari – ud, skripka, yakkaxon xonanda va erkak xonandalar guruhi hamda ikki raqqosdir. Musiqiy jo'rlikka qarsaklar qo'shiladi. Savt uch toifaga bo'linadi: Shami Mizan 4/4, Arab Mizani 6/4, Xayali Mizan 12/8.

Shuningdek, Samar qo'shiqlari toifasining guruhi ham mavjud, ular orasida Al-Labuniy, Al-Samariy va Xuraysaniy. Har bir toifa orasida metroritmik jihatdan kichik farqlar bor, va bu toifalarning barchasi Tabla va Tar cholg'ulari jo'rligida guruhning qarsaklari ostida qo'llaniladi.

Rabab chalish san'ati – sahroda yashovchi xalq san'atlaridan biri. Rabab – nihoyatda qadimiy cholg'u, u Qatarda arab qabilalari Arab yarim orolidan ko'chib ketganidan so'ng topilgan. Bundan tashqari, rabab xalq qahramonligi va undan faxrlanishga bag'ishlangan mashub she'riyati va badaviylar she'riyati muhim rol o'ynagan san'atlarning alohida turidir.

So'nggi qismda Qatarga kirib kelgan san'atlardan hisoblanmish lirik janrlar guruhi, xususan xappan san'ati muhokama qilinadi, u xappan cholg'usi yoki jerba bilan tabla cholg'ulari jo'rligida kuylanadi. U qurg'oqchilik sabab Eron sohillariga

<sup>24</sup> Ziara K., *Glimpses of Folklore in Qatar*, Ministry of Education and Culture, Qatar 1997, p. 37.

<sup>25</sup> Al-Badi L, a popular singer and researcher in heritage, personal interview on 04/21/2022.

<sup>26</sup> Al-Dweik M., *ibid*, p. 189.

ko'chib borgan arablar sharofati bilan paydo bo'lgan. Shuningdek, Sharqiy Afrika qirg'oqlaridan Komor orollari, Zanzibara va Tanzaniya mamlakatlariga kirib kelgan liva san'ati mavjud. Bu guruhli raqs bo'lib, Al-Liva truppassi bir nechta musiqachi va bir nechta raqqosdan iborat, o'yinda faqat erkaklar ishtirok etadi, ayollar esa faqat raqs va xonishda qatnashadi. Unda qo'llaniladigan cholg'ular surnay va turli o'lchamdagi uch-to'rtta tabladan iborat. Shuningdek, Afrikadan kirib kelgan Tunbura san'ati ham mavjud bo'lib, u mifologik obrazlar bilan bog'liq teran ruhiy tabiatli dramatik raqsdir. Uning ritmi tovon harakati mo'ljallangan. Bu guruhli raqs. Uning ijrosida o'yinchilar raqsning o'ziga xos cholg'usi bo'lmish Tunburaga qo'shimcha sifatida Manajeb nomli barabanlardan, Mangur nomi bilan mashhur ba'zi echkilar tuyog'idan foydalanadilar<sup>27</sup>.

Ikkinchi paragraf "Qatarining zamonaviy musiqasi" deya nomlanib, u Qatar zamonaviy musiqasining paydo bo'lishiga olib keluvchi omillar, renessansli jamiyatda musiqa san'ati tarqalishiga, rivojiga hissa qo'shgan ayrim o'quv yurtlarining roliga bag'ishlangan.

Guruhlar shakllanishida muhim rol o'ynagan Qatar radiosi faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi, u merosni yozib olib, ijodiy guruhlarining ko'plab a'zolarini musiqa ilm-fanini o'rganishga yo'naltirdi, Abdul Aziz Nasser, Hasan Ali, Ibrohim Ali, Abdulrahmon al-Manno'iy va Abdulrahmon al-G'anim shu jumlagi kiradi, bu guruhga keyinchalik Faraj Abdulkarim va Muhammad Rashidlar ham qo'shildi. Bu musiqa san'atining yangi tarixiy davrda shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi, shu sabab, Qatarda zamonaviy qo'shiq dunyoga keldi.

Ushbu rivojlanish ijodiy guruhlar va skripka, qonun, fleyta, organ, gitara va boshqa musiqiy cholg'ularning paydo bo'lishi bilan davom etdi. O'zgarishlarga uchragan arajirovka (sayqallash) metodi muhim rol o'ynadi. Qatarda Yegipet Arab Respublikasidan yozib olingan zamonaviy qo'shiq turlari qo'llanila boshlandiki, ular mamlakatda shunga o'xshash janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ularning birida folklorga asoslangan (ijrochi Hasan Ali) an'anaviy struktura saqlanib qoldi, boshqa turi esa zamonaviy romantik qo'shiq ko'rinishida namoyish etildi (Abdul Aziz Nasur)<sup>28</sup>.

2007 yilda Hazrati Oliyolari shayx Moza binti Naser rahbarligidagi Qatar fondi markazi sifatida tashkil etilgan Qatar filarmonik orkestri muhim ahamiyatga ega. Uning tarkibiga 30 ta mamlakatdan kelgan, xalqaro tinglovlarda tanlab olingan 67 ta professional musiqachi kiradi. Qatar filarmonik orkestrining maqsadi – Qatar va arab olamidagi katta-yu kichikni musiqa yaratish va undan rohatlanishga birdek ilhomlantirish, g'arb va arab musiqasini ijro etish va targ'ib qilishdir. Ushbu madaniyatlarni o'zaro qorishtirgan holda, Qatar filarmonik orkestri mintaqadagi arab kompozitorlari va artistlari faoliyatini namoyish etish va rivojlantirishga yordam beradi. Qatar musiqa an'analari va merosini orkestr uslubiga muvofiq rivojlantirish va ko'paytirish bo'yicha Filarmoniya missiyasini qo'llab-quvvatlash uchun ushbu tashkilot ko'plab mashhur musiqachilar bilan hamkorlik qiladi, ular orasida Ual Bin Ali, Nasser Saxim, Dana al-Fardan va

---

<sup>27</sup> Ziara K., ibd, p. 36.

<sup>28</sup> Al-Kuwari M., a personal interview at his home in Doha, on 04/20/2022.

Xamed Xussayn Neymaxlar bor. Ular orkestrni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy Qatar madaniyatini targ'ib etishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Nasser Saxim Qatar filarmonik orkestrining ijrochi direktor o'rinbosari sifatida Qatar va dunyoning ko'plab mamlakatlari o'rtasida madaniy ko'prik o'rnatdi, ular orasida AQSh (Disney shou), Yegipet (Klassikaning oltin asri), Quvayt (doktor Amir Ja'far bilan hamkorlikda), O'zbekiston (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston davlat simfonik orkestri bosh dirijyori Kamoliddin O'rinboev bilan hamkorlikda), Germaniya kabi davlatlar bor. Qatar filarmonik orkestrining loyihalari muvaffaqiyatli bo'lib, globallashuv davridagi madaniy diplomatiya siyosatini amalga oshirmoqda<sup>29</sup>.

Qatar teatr musiqasini rivojlantirish sohasida so'z yuritadigan bo'lsak, XX asr o'rtalarida repertuarda nafaqat g'arbiy klassik musiqali spektakllar, balki ayrim mahalliy premyeralar ham bor edi. Saksoninchi yillarda mashhur kuylardan foydalanilgan teatr qo'shiqlari paydo bo'ldi va ular sabab, teatr uchun ilk kompozitsiyalar yaratildi. Shunday qilib, Qatar va Fors ko'rfazidagi boshqa arab mamlakatlarining artistlari ishtirokida lirik operettalar namoyish etildi. Bu bolalar teatr qo'shiqlari, qo'shiq-komediyalar, siyosiy-jamiyat qo'shiqlari va boshqa turli toifadagi lirik hamda teatr asarlarini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Uchinchi paragraf (Qatar musiqasida qo'llaniluvchi musiqiy cholg'ular) Qatar xalqining musiqiy cholg'ularini aniq ta'rifi bilan o'rganishga, ularning qatar musiqasida paydo bo'lgan davrini aniqlashga, manbalarni o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, lirik janrlar va ularga jo'r bo'luvchi cholg'ularning zarbli, torli va damli turlarga bo'linuvchi keng qamrovi o'rganiladi.

Turli xil lirik janrlar jo'rligida muhim rol o'ynagan Tablaning zarbli cholg'ular guruhi alohida ta'kidlanadi. Bunda Tar cholg'usining roli ham kam emas, aksariyat hollarda tus ularga arda san'ati va dengiz qo'shiqlarida jo'r bo'ladi, bunda suv solish uchun ishlatiladigan sopol idish ko'rinishidagi exall cholg'usi fijeriyini ijro etishga mo'ljallangan. Kichik tabla ko'rinishidagi mervas cholg'usi ko'pincha samar qo'shig'i ijrosida foydalaniladi, ozuqa yog'larini saqlashga mo'ljallangan yupqa metall plastina ko'rinishidagi tenka cholg'usi esa manjor cholg'usiga qo'shimcha sifatida liva san'atida qo'llaniladi, manjor qalin, mayin mato parchasidan iborat, qisqa iplar bilan bezatilgan, katta miqdordagi echki tuyoqlari va bir nechta kichik qo'ng'iroqchalar bilan birlashtirilgan cholg'u, uni ijrochi beliga taqib oladi, ko'pincha tanbur jo'rligida ishlatiladi<sup>30</sup>.

